

## **ERKIN A'ZAM IJODINING O'ZIGA XOSLIKLARI HAQIDA**

*Maxkamtosheva Marhabo Abduraxmon qizi,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti filologiya fakulteti 2-kurs talabasi,  
Ilmiy rahbar: Nasirov A. SamDU professori*

**Annatatsiya:** Iste'dodli adib Erkin A'zamning badiiy asarlarida turfa xil xarakterlar ifodasi, obrazlar olami, uning xarakter qirrlarini talqini etakchilik qiladi. Maqolada adibning hikoyalari va "Shovqin" romani haqida mulohazalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** xarakter, ramz, majob, obraz va obrazlilik.

## **СВОБОДА СОЗДАВАТЬ СЕБЯ**

### **О НЕДВИЖИМОСТИ**

Махкамтошева Мархабо Абдурахман, дочь,  
Самаркандский государственный университет  
имени Шарофа Рашидова студентка 2-курса  
филологического факультета университета,

Научный руководитель: Насиров А.

СамДУ профессор.

**Аннотация:**

В художественных произведениях талантливого писателя Эркина Азама преобладает экспрессия разнообразных характеров, мира образов, интерпретация граней его характера. Статья содержит комментарии к рассказам писателя и роману «Шум».

**Ключевые слова:** персонаж, символ, характер, образ и образность.

## **FREEDOM TO CREATION ITSELF ABOUT THE PROPERTIES**

Makhkamtosheva Marhabo Abdurakhman's kizi,  
Samarkand state named after Sharof Rashidov  
2nd year student of the Faculty of Philology of the  
University,  
Scientific leader: Nasirov A. professor SamDU

### **Annotation:**

The artistic works of the talented writer Erkin Azam are dominated by the expression of various characters, the world of images, and the interpretation of his character edges. The article contains comments about the writer's stories and the novel "Noise".

**Key words:** character, symbol, character, image and imagery.

Keyingi yillarda badiiy adabiyotimizda turfa xil ohangdagi va turli janrdagi yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar maydonga keldi. Shunday ekan, ushbu

asarlarni tahlil qilish jarayonida badiiy asarlardagi o'ziga xos talqin usuli, yozuvchi poetik mahoratini tahlil qilish bugungi adabiyotshunosligimizning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. O'tgan asrning yetmishinchi yillarida adabiyotimizga yangi avlod kirib keldi. Bu avlod badiiy adabiyotdagi turfa xil o'zgarishlarni asarlar tarkibiga singdirgan. Ana shunday ijodkorlardan biri iste'dodli yozuvchi Erkin A'zamdir. Keyingi davr o'zbek nasri, dramaturgiyasi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shib kelayotgan ijodkorlardan biri Erkin A'zam yaratgan asarlar o'quvchi tomonidan yaxshi kutib olindi va adabiyotshunoslar bu asarlarni katta mahorat bilan yaratilganligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Yozuvchining turfa xil xarakterdagi hikoya va qissalari bu janrlarning taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shilgan. Adibning xarakter yaratish an'anasi hayot voqeligini aks ettirishdagi o'ziga xos tasvir usuli mavjud. XX asrning 70-80- yillariga kelib adabiyotda yangi bir to'lqin shakllandi. Bu davr yozuvchilari ijodida mumtoz adabiyot an'alariga va milliylikka intilish bilan bir qatorda, yangicha adabiy tafakkur shakllanib, badiiy obrazlar silsilasida turmushni tubdan o'zgartirishga harakat qilgan zamonaviy qahramonlar badiiyatda o'z aksini topa boshladi. Bu davr qissachiligida Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, Erkin A'zam, Xayriddin Sulton, G'offor Hotam kabi ijodkorlar bu janr taraqqiyotiga o'lgan hissa qo'shdi. Ularning badiiy asarlarida milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy muhitga qarama-qarshi obrazlar tizimi maydonga keldiki, ularda yashashni ma'nisini anglashga bo'lgan intilish o'z aksini topdi.

Darhaqiqat, Erkin A'zam ijodni qismat deb bilgan ijodkorlardan biridir. Adib asosan qissa va hikoyalari bilan kitobxon qalbiga yo'l topgan. Ammo keyingi yillarda yozuvchining "Shovqin" romani chop etildi. Asar haqida bir nechta maqolalar e'lon qilindi. Yozuvchining bu romani ramziylikka asoslangan bo'lib, noan'anaviy xarakterdagi asarlardan biridir. Romanda hayotning ma'lum bir qirrasini o'z uslubi nuqtai nazaridan aks ettirishga intiladi. Turli janrlar taraqqiyotidagi o'zgarishlar adib ijodidagi qissa janrida ham ko'zga tashlanadi. Keyingi yillar qissachilik haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Umarali Normatov

shunday yozadi: “Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda birinchi galda undagi mavzu muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang–baranglik e’tiborni tortadi; ular orasida tarixiy, zamonaviy, ijtimoiy–siyosiy, oilaviy–maishiy, ishqiy mavzulardagi ham an’anaviy romantik, realistik, ham modernistik, ham jiddiy, ham yumoristik, sarguzasht–dedektiv yo`nalishdagi asarlarni ko`rish mumkin, turli saviyada bo`lishidan qat’iy nazar rang–baranglikka ne yetsin” [1, 47-bet]. Qayd qilinganidek, bu janrda mavzu jihatdan turli qissalar yaratildiki, unda inson ruhiyati, xarakter xususiyatlari talqin qilingan. Badiiy asarlarni yaratish jarayonida hayotga va voqellikka bo’lgan munosabati obrazlar tizimi orqali namoyon bo’ladi. “San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o’zi anglagan mohiyatni va o’zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma’noda obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san’atga xos fikrlash tarzi “obrazli tafakkur” deb yuritiladi”. Badiiy obraz borliqning badiiy asardagi inikosidir. Biroq badiiy obraz o’sha borliqning oddiygina aksi emas, san’atkor ko’zi bilan qaralgan va badiiy talqin etilgan shaklidir. Shu jihatdan, yozuvchi Erkin A’zam asarlarida hayotni turfa xil jihatlarini badiiy talqin etish, turfa xil xarakterdagi obrazlarni yaratish xususiyati yetakchilik qiladi. “Chiroqlar o’chmagan kecha” hikoyasida yangi yilni kutib olish tasvirlanadi. Ijarada turgan talaba yoshlar Vali ota xonadonida yangi yilni kutadilar. Yangi yil – barchaning bayrami: hamma xonadonga, har bir inson qalbiga tashrif buyuradi. Yoshlar yangi yilni ijara xonadonda kutib olayotganlarini unutadilar: a’lo kayfiyat, o’yin-kulgi, yoshlik shijoati ularni butunlay rom etadi. Xonadon egasi Vali ota – yolg’iz. Uning kampiri vafot etgan, bolalari, nevaralari negadir kelishmadi. Otaning dard-dunyosi qorong’u. Ammo, u yoshlar kayfiyatini buzishni istamaydi: o’zini majburlab yangi yilni yoshlar davrasida qarshilaydi. Yangi yilda yoqqan qor hammaning kayfiyatini ko’taradi. Hikoyaning “Chiroqlar o’chmagan kecha” deb nomlanishida ramziy ma’no bor. Dastlabki hikoyalaridayoq Erkin A’zam hayotni, kishilarni sirtidan emas, ich-ichidan tasvirlash, ko’rsatishga intiladi. Yosh yozuvchi

asarlarida matnning kuchliligi diqqatni tortadi. "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi Erkin A'zamni keng kitobxonlar davrasiga o'ziga xos yozuvchi sifatida olib kirdi. Qissa lirik ruhi, izchil realizmi, pishiq-puxta xarakterlari bilangina emas, hayotga, kishilarga, voqea-hodisalarga tanqidiy nigohi bilan diqqatni jalb etdi.

Roman faqat moddiy olamda yashashning ma'nosi haqidagina emas, balki ruhiyatda kechayotgan jarayonlarni real hayotga ko'chirmoq, moddiy ma'murlik asosida insonparvarlikni ta'minlab muvozanatga erishmoq to'g'risida bitilgan. Romanning syujet chiziqlari muallif konsepsiyasida uzviy payvandlanadi. Obrazlarning hayot yo'li va taqdiri muallif falsafasining u yoki bu qirrasini o'zaro psixologik bog'liqligi jihatidan fikran tutashtiradi. Asarda ziddiyatli o'y-fikrlar taraddudi va irodaning to'xtami haqida so'z boradi. Anglashiladiki, milliy adabiyotimizning qahramoni fikrlovchi o'ychil kishiga aylanmoqda. Chunki bugungi adabiyot o'ziga xos badiiy-estetik hodisa o'laroq, tubdan o'zgargan milliy ongning, yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli. Bugun muayyan shaklu shamoyil kasb etib, adabiy yo'nalishlari anchagina muayyanlashgan yaqin yigirma yillik o'zbek romanlarida milliy-adabiy an'analarning qayta bo'y ko'rsatishi hamda ilg'or jahon romanchilik maktablarining samarali ta'siri kuzatiladi. Darhaqiqat, romanchiligimizga 80-yillardan e'tiboran hayotga yangicha tafakkur bilan yondashuvchi o'zgacha uslub kirib keldi. Lirizm o'rnini izchil realizm, romantik sentimentallikni birmuncha qat'iyat egalladi. Roviyy timsoliga e'tibor ortdi. 90-yillardan e'tiboran qahramonlarga bo'lgan munosabatda murakkabliklar ko'zga tashlana boshladi. Bularning aksariyati o'tgan asrning 20-30- yillari an'analarga u qadar to'g'ri kelmaydi. Chunki endilikda romanlarimizda xalq taqdiri qahramon taqdiri yo'sinida aks eta boshladi. E. A'zamning keying'i asarlaridan biri "Shovqin" deb nomlanib, unda yozuvchi inson hayotiga mutlaqo boshqa tarafdin nazar tashlashni ma'qul ko'radi. Aslida, hayotning hech kutilmagan tomoniga nigoh qaratish, voqeylikni o'ylamagan joydan boshlash, muammoni qo'ya bilish uning o'ziga xosligini belgilovchi mezonlardan biridir. Shovqin nima o'zi? Shovqin -

anglanmagan tovushlar yig'indisi. Aniq bo'lmagan ovozlarning qo'shib, aralashib ketishi. Yozuvchi voqeylikni timsol darajasiga ko'tarib, jamiyat va millat ma'naviy inqirozini shu nom ostida umumlashtirib, sarlavhaga chiqaradi. Mana shu shovqin, g'ala-g'ovur roman syujeti uchun ko'prik vazifasini o'taydi. Shaxs (Farhod) muammosini umummillat (insoniyat) dardlari sathida tasvirlashga intiladi. Dunyoning shovqinlariga aralashib ketib, o'zligini unutib, ma'ni topolmay ovora odamning shovurlar orasida o'tgan hayoti asarga asos qilib olingan. Katta ma'nodagi "shovqin"ga, ya'ni dunyoning o'zi shovqindan, g'ala-g'ovurlardan iboratligiga ishoralar borday. "Shovqin" romanida ziyoli qatlam sanalmish san'at ahlining ma'naviy inqirozining sabablari fosh etiladi. Romanda tasvirlanganidek: "Ustozning ziyoratiga quruq qo'l bilan borib bo'lmaydi, bilib oling. Bozor – o'char qilsangiz-ku – himmatingiz, lekin bir shisha "Oq laylak" konyagi bo'lmog'i shart – faqat shunisidan no'sh etadilar Ustoz. Koshki u zormandani topish oson bo'lsa! Mana bordingiz deylik. Chol bog'dagi biror daraxt soyasida albatta esnab o'tirgan bo'ladi. Bazo'r ko'zini ochadi, "O'qing", deb qo'yadi. Ro'parasiga o'rnashib, qora ter ichida, ming bir istihola bilan keltirgan matohingizni o'qimoqqa tutinasiz. Ustoz ko'zlarini yumib olgan, o'qtin – o'qtin pishillab, xurak ham olayotganga o'xshaydi. Parvo qilmang, o'qiyvering, aks holda dog'da qolasiz. Mug'ambir chol o'zini atay merovlikka solayotir. Tuyqusdan ko'zini ochib shunday bir savol beradiki hali! Bunday olganda – anchayin jo'n savol, hatto ibtidoiy. Ammo xomtama bo'lmang – unga javob topmoq oson ish emas. Ustoz qo'ltiqlab kelgan qo'lyozmangizning jon – joyini nishonga olib nish uriyotir" [2,20-21-betlar].

Bu tasvirlarda keksa bir avlodning o'ziga xos fojealari bilan bir qatorda, ustoz deb qaralgan shaxsning xarakter qirralari yoritilmoqda. Asardagi obrazlarning o'ziga xos xarakterlari bilan bir qatorda, shaxsning xarakter darajasiga ko'tarilish holatlari yorqin tasvirlangan. Asarda Farhod Ramazonning badiiy xarakterini go'zal tasvirlarda ifodalagan. "Aslida Farhodni qo'lidan ushlab, yo'q, tortib kino olamiga olib kirgan odam mana shu bo'ladi. Kursni bitirib borgach yozgan ilk kiroyi asari

“Qaldirg’ochlar, qachon qaytasiz?” ga xaridor topilmay yurganda “Men olaman shuni!” deb maydonga chiqqan edi u. Qo’rqqoq rais darrovgina rozilik bergan, Ustoz – pustozga yo’llamoqda og’iz ham ocholmay qolgan: markazga aloqador odam! “Ravshanbek Usmonovich oladigan bo’lsalar, nimayam derdik, muvoffoqiyatlar tilaymiz faqat!” deya tilyog’lamachilik qilgan” [2,30-bet].. Bu o’rinda Farhodni ilk asarini sahnaga qo’yilish sabablari talqin etilgan. Xullas, badiiylikning turfa xil ohanglarini yuzaga chiqish jarayonini turfa xil asarlar misolida kuzatish mumkin ekanligini ta’kidlamoqchimiz.

### **Adabiyotlar:**

- 1.Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000.
- 2.A’zam Erkin. Shovqin. Roman. Qissa. Hikoyalar. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2011.
- 3.Nasirov Azimidin Normamatovich. Features of symbolic interpretation. international journal on orange technologies. tom 3. 71-76. 2021.
- 4.Nasirov Azimidin Normamatovich. Novel thinking and artistic conflict in shoyim butayev's novels. European journal of molecular & clinical medicine. 7(3). 2020.
- 5.Nasirov Azimidin Normamatovich. Stylistic units and compositional impartiality. theoretical & applied science. 12 (586-571). 2019.
- 6.Azimidin Nasirov. Odil Yoqubovning “Ulug ‘bek xazinasi” romanida badiiy obraz yaratish. Uluslararası türk lehçe araştırmaları dergisi (türklad). 4(2). 200-20.